

IJTIMOYIY ANTROPOLOGIYA FANI TARAQQIYOTI VA
UNDAGI YONDASHUVLAR

Tojiboyev Ravshanbek Isaqjon o'g'li

Farg'ona viloyati Farg'ona shahri

Prezident maktabining Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy holda antropologiya fani taraqqiyoti va ijtimoiy antropologiya yo'nalishining antropologiya fani doirasidagi ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Antropologiya, qiyosiy-tahliliy yondashuvlar, Ijtimoiy antropologiya, ilmiy jamiyatlar.

Insoniyatning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyoti ustida izlanishlar olib boruvchi gumanitar fanlar tarmog'ida antropologiya fani alohida o'rin tutadi. O'z navbatida mazkur fan ham bir necha bo'limlar tarmog'iga aylangan bo'lib, o'z oldiga inson va uning kelib chiqishi, taraqqiyoti, tabiiy va madaniy muhitlar kesishmasidagi mavjudlik shartlarini o'rganish maqsadini qo'ygan. Bugunda antropologiya fanining media antropologiyasi, vizual antropologiya, kibernetik antropologiya, pedagogik antropologiya, diniy antropologiya, feministik antropologiya, jismoniy antropologiya, falsafiy antropologiya, ijtimoiy va madaniy antropologiya kabi yo'nalishlari shakllangan bo'lib, ularning har biri o'z tadqiqot doirasi va ob'yektiga egadir. Ushbu maqolada ko'rib chiqilishi maqsad qilingan ijtimoiy antropologiya yo'nalishi esa nisbatan etnologiya faniga yaqin hisoblanadi va inson jamoalarining qiyosiy tadqiqi bilan shug'ullanadi. Mazkur tarmoq olimlari o'z tadqiqotlari asnosida ijtimoiy antropologiyaga taalluqli muammolar doirasi va metodologiyasi kontekstida lingvistik, kognitiv, siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va huquqiy antropologiya kabi kichik tarmoqlarni ham hosil qilganlar.¹

Antropologiya fanining shakllanishi Qadimgi Yunoniston bilan bog'liqlikda yuz bergan va mazkur mintaqada rivojlangan antik davr falsafa ilmiga borib taqaladi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel (mil.avv. 384-322 yy) tomonidan ishlatilgan ushbu termin dastavval asosan inson tabiatining ruhiy jihatlarini o'rganuvchi soha sifatida ta'riflangan. Keyingi davrlarda ko'plab klassik va noklassik falsafa olimlari (Kant, Feyerbax) "antropologiya" terminini ko'p jihatdan shu ma'noda qo'llagan bo'lsalarda, fanning maxsus falsafiy antropologiya tarmog'i va maktabi hozirgi ko'rinishida XX asr boshlarida shakllandi.

Antropologiya fani o'zining dastlabki ma'nosida hozirga qadar ko'plab gumanitar fanlar (san'atshunoslik, psixologiya va boshq.), ilohiyotshunoslik

¹ Wikipedia.ru

(teologiya) va diniy falsafa yo`nalishlarida ishlatiladi. Masalan, pedagogika bo`yicha o`quvchiga ta`lim va tarbiya berishning antropologik yondashuvi mavjud.² Antropologik bilimlar majmuasining farqlanishi va murakkablashuvi keyingi davrlarda jadal yuz berdi.

Fanning dastlabki taraqqiyoti mobaynida (XVII-XIX asr o`rtalari) uni insonning tabiiy tarixi, jismoniy tuzilishi, psixologiyasi, madaniyati va tilini o`rganuvchi universal yo`nalish sifatida anglaganlar. Inson va inson jamoalarining xususiyatlari to`g`risidagi antropologiya fanidagi dastlabki konsepsiyalar evolutsionizm tushunchasiga yaqin tushunchalardan iborat edi. Insoniyat taraqqiyotidagi ovchilik, chorvachilik va dehqonchilik bosqichlarining izchil ketma-ketligi g`oyasi fanda fransuz olimi va davlat arbobi Rober Tyurgo tomonidan ilgari surilgan bo`lsa, biologik klassifikatsiyada inson o`rni masalasini shved tabiatshunos olimi Karl Linney taklif etgan.

XIX asr o`rtalaridan boshlab G`arb mamlakatlarida antropologik ilmiy jamiyatlar tuzila boshlandi. Xususan, 1855-yilda Parijdagi tabiat tarixi muzeyida dastlabki antropologik bo`lim ishga tushgan. Fransiya miqyosidagi dastlabki Antropologiya jamiyati esa 1859-yilda avvaldan mavjud bo`lgan Etnologiya jamiyati tarkibida fransuz antropologi Pol Brok tomonidan ochilgan. XIX asrning 60-70-yillarida shu kabi jamiyatlar Buyuk Britaniya, Rossiya, Germaniya va Italiya davlatlarida ham paydo bo`la boshlagan.

Keyinchalik Fransiya va Rossiyada antropologiya termini ostida fanning hozirda jismoniy yoki biologik antropologiya deya yuritiladigan bo`limi, ingliz tilli mamlakatlar, shu jumladan AQShda ijtimoiy, madaniy antropologiya bo`limlari, tarixiy lingvistika va arxeologiyani tushuna boshladilar. Sobiq SSSR da ham antropologiya fani mohiyatini jismoniy xususiyatlarga bog`lab tadqiq etish odat tusida edi.³

Ijtimoiy (sotsial) antropologiya yo`nalishi antropologiyaning inson jamoalari xulq-atvori va xatti-harakatlari modellarini tadqiq etuvchi alohida va taniqli tarmog`i sifatida Buyuk Britaniya va boshqa G`arb mamlakatlarida XIX asrdan e`tiboran ildiz ota boshladi.⁴ Aynan yuqorida tilga olingan mintaqada ushbu yo`nalishning madaniy antropologiyadan farqlari aniqlashtirib berilgan. AQSh da esa ijtimoiy antropologiya odatda madaniy antropologiya bilan bog`liqlikda tadqiqotlarda qo`llaniladi yoki sotsio-madaniy antropologiya sifatida juftlashtiriladi. Umuman olganda, madaniy antropologiya atamasi yagona ruhiy butunlikka ega, individual tajribaga ta`sir o`tkazuvchi madaniy jarayonlarga urg`u qaratuvchi, xalqlarning kognitiv xususiyatlari, odatlari va ijtimoiy-madaniy institutlari haqida yaxlit tushuncha berishga yo`naltirilgan etnografik ilmiy tadqiqotlarga nisbatan ishlatiladi. Ijtimoiy antropologiya atamasi

² https://studme.org/124607/pedagogika/antropologicheskiy_podhod_vospitaniyu

³ Большая советская энциклопедия. Антропология. М. 1926.

⁴ Dianteill, Erwan, Cultural Anthropology or Social Anthropology? A Transatlantic Argument. 2012. p. 93.

ostida esa jamiyatlarning xo`jalik turmushi, iqtisodiyoti, qonunchiligi, siyosati yoki diniy e`tiqodlari muayyan ijtimoiy tizimga solgan holda boshqa jihatlardan izolatsiyalaydigan, analitik ustuvorlikni ijtimoiy hayotning tashkiliy jihatlariga yo`naltiruvchi va madaniy holatlarga ijtimoiy turmushning ikkilamchi yo`nalishi sifatida qaraydigan etnografik tadqiqotlar tushuniladi.⁵

Ijtimoiy antropologlar uchun tadqiqot ob`yektlari vazifasini odat va an`analar, iqtisodiy va siyosiy tuzilma, huquqiy tuzilmalar va protsessual jarayonlar, iste`mol va ayirboshlash modellari, qarindoshlik va oilaviy strukturalar, gender munosabatlar, bolalarning tug`ilishi va ijtimoiylashuvi asnosidagi munosabatlar, diniy e`tiqodlar, globalizm muammolari, etnik zo`ravonlik, genga oid tadqiqotlar, transmilliylik va mahalliy tajribalar, endi paydo bo`layotgan kibermakon madaniyatlar o`taydi. Bu soha olimlari, bunga qo`shimcha tarzda iqtisodiy taraqqiyot ekologik muammolar bilan ziddiyatga kirishganda raqib taraflarni birlashtirishga ko`maklashuvchi nazariya va g`oyalarni ham ishlab chiqadilar.⁶

Ijtimoiy antropologiyada odatda iqtisodchilar, siyosatshunoslar va (ko`pchilik) sotsiologlar tomonidan qo`llaniladigan so`rovnomalar va qisqa muddatli dala tadqiqotlarini miqdoriy tahlil qilishdan ko`ra, uzoq muddatli sifatli izlanishlar, shu jumladan intensiv dala tadqiqotlari (ishtirokchilarni kuzatish uslublariga urg`u bergan holda) rag`batlantiriladi.⁷

Ijtimoiy antropologiya iqtisodiyot yoki siyosatshunoslik fanlaridan o`zining yaxlit diapazoni va butun dunyodagi inson jamoalari va madaniyatlarining qiyosiy xilma-xilligiga qaratadigan fokusi bilan ajralib turadi va bu xususiyat fanga Yevro-Amerikanizm gipotezalarini qayta ko`rib chiqish imkonini beradi. Fan sotsiologiya fanidan bir tarafdin o`zining asosiy tadqiqot metodologiyasi (uzoq muddatli kuzatishlar va lingvistik kompetensiyalar) bilan ajralib tursa, boshqa tarafdin mikrotadqiqotlar tufayli kelib chiqadigan aktuallik va yoritilish darajasiga sodiqligini namoyish etadi. Qolaversa, ijtimoiy antropologiya qat`iy ijtimoiy hodisalardan tashqari madaniyat, san`at, individuallik va idrokni ham qamrab oladi. Ko`pgina ijtimoiy antropologlar miqdoriy tahlil usullardan, xususan, mahalliy iqtisodiyot, demografiya, inson ekologiyasi, idrok, kasalliklar va salomatlik kabi mavzularga taalluqli tadqiqotlardan keng foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hendry, Joy. An Introduction to Social Anthropology: Other People`s Worlds. London. 1999.
2. Dianteill, Erwan, Cultural Anthropology or Social Anthropology?

⁵ Sumananthromaterials.blogspot.com. Anthropology for beginners: Social and Cultural anthropology. 2010. Academic blog post explaining the similarities/differences between social and cultural anthropology.

⁶ Hendry, Joy. An Introduction to Social Anthropology: Other People`s Worlds. London. 1999.

⁷ Bernard, R. Research Methods in Anthropology. Lanham: Alta Mira Press. 2006.

A Transatlantic Argument. 2012.

3. Bernard, R. Research Methods in Anthropology. Lanham: Alta Mira Press. 2006.

4. Sumananthromaterials.blogspot.com. Anthropology for beginners: Social and Cultural anthropology. 2010. Academic blog post explaining the similarities/differences between social and cultural anthropology.